

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"

TRIKATOJ MATOLARIDAN TIKILGAN BOLALAR KIYIMINI TAHLILI

Butayeva Nilufar Tolibjon qizi
Farg'ona politexnika instituti magistrant
Valiyev Gulam Nabidjanovich
t.f.d., kafedra professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yengil sanoatning eng tez rivojlanuvchi va yuqori samaradorlikka ega bo'lgan tarmoqlaridan biri trikataj sanoati ekanligi, Bolalar kiyimini modellashtirishda to'g'ri tanlangan gazlamaning ahamiyati katta ekanligi, Trikotaj matolaridan tikilgan kiyimni kiyib yurish qulay, ergonomik talablarga javob beradi. Ularning issiqni saqlab qolishi va gigienik xususiyatlari, havo o'tkazuvchanligi juda yaxshiligi xamda kiyim yurgan bolani xarakatlari xalaqt bermaydi, charchatmaydi.

Tayanch so'zlar: trikotaj, rivojlantirish, isloh qilish, mato, to`qimachilik, ishlab chiqarish, modellashtirish.

Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda, yangi texnologiyalar qo'llanilmoqda va mahsulot turlari kengayib bormoqda. Sanoat, savdo va xizmat ko'rsatish yuqori texnologik, tannarxi past va xaridor talabiga javob beradigan xususiyatlarga ega bo'lgan trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishni talab qiladi.

Bolalar kiyimlari ularning onggiga juda kata ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'sib borayotgan bolalarning tezkor, chaqqon, aqli, o'ziga ishongan, fahm farosatli bo'lislilarida kiyimlarning xam o'rni katta. Bolalarning dunyoqarashi kattalarnikidan tubdan farq qiladi. Matolarning yorqin rangda bo'lishi ularning qabul qilish diapazonini tez rivojlanishini ta'minlaydi

Bolalar kiyimini modellashtirishda to'g'ri tanlangan gazlamaning ahamiyati kattadir. Bolalar kiyimini tanlash uchun sifatli, yuqori darajali gigienik, ekspluatation va estetik sifatga ega bo'lgan materiallar tavsiya etiladi. Bolalar kiyimlariga qo'llanilayotgan material chidamlilik xususiyatiga ham ega bo'limg'i darkor, sababi bolalar serxarakat bo'ladilar. Bolalar kiyimi bolalar tanasida havo sirkulyasiyasi (aylanishini) yaxshilashga xizmat qilishi lozim.

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Gazlamalarni tanlash modellarning qo'llanilish maqsadiga ko'ra, ularning kompozitsion qarorlari xarakteri va yo'nalishiga qarab amalga oshiriladi. Bolalar kiyimlari zamonaviy bozor tuzilishi va bezagi bo'yicha turli matolarning ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Bolalar kiyimi ayniqsa, sport kiyimlari tabiiy matolardan tayyorlanadi. Masalan, velyer, maxra, lastik, trikotaj, tabiiy tola aralashgan neylon va boshqalardan tikiladi. Shuningdek sun'iy matolar xam ishlatilishi mumkin. Bunda sport turi, bola yoshini xisobga olish kerak. Sport kiyimlarini ishlab chiqarishda gazlamaning tolaviy tarkibidan tashqari uning 31 o'rinish turi, dinamik- mexanik xususiyatlarini inobatga olish zarur bo'lib bunda, gazlamaning pishiqligidan tashqari uning uzilishi (yirtilishi)ham muhimdir.

Trikotaj matolaridan tikilgan kiyimni kiyib yurish qulay, odam badanini siqmaydi. Ularning issiqni saqlab qolishi va gigienik xususiyatlari juda yaxshi. Trikotaj matolari yuvilganda va xatto kimyoviy tozalashda ham bo'yamasiga kirishadi, eniga esa kengayadi. Shu tufayli trikotajdan tikilgan buyumlar o'z shaklini tez yoqatadi. Ichki kiyimlarni tikish uchun bo'yamasiga ko'ndalangiga to'qilgan matolar ishlatiladi. Mayka, ishtonlar, bolalar kiyimlari uchun bu matolar paxta tolali ipdan "Glad" o'rinishda ishlab chiqariladi. Bu buyumlar lavsan tolali xajmdor iplardan tayyorlanadi. Issiq saqllovchi ichki kiyimlar uchun paxta tolali iplar, nitron va viskoza aralashmasidan olingan iplardan, sirtiga tuk chiqariladigan matolar ishlatiladi.

Bolaning tanasining o'lchamlari ikki yo'nalishda o'rganiladi. *Yoshi keng miqyosda olingan*, masalan, 3 yoshdan 18 yoshgacha bolalar guruhi bir vaqtda o'lchanadi. Bunday usul, ko'ndalang tadqiqot usuli deyiladi. Bolalar tanasi yoshiga xos o'zgaruvchanliklarga ega bo'lganligi sababli ularni o'lchash ishlari va statistik parametrlar hisobi intervali bir yilga teng guruhlar bo'yicha olib boriladi, aks holda, natijalar normal taqsimot qonuniyatiga bo'ysunmaydi.

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Bolalar kiyimi kattalar kiyimining nusxasi bo`lib, barcha detallar takrorlanadi. Bolalar kiyimi hozirgi ko`rinishini kasb etgunga qadar uzoq rivojlanish yo`lini bosib o`tadi. Bolalar kiyimini loyhalashda har bir yosh guruppasiga mansub bolalarning gavda , kiyim detallarining chizma yoyilmasini, gavda o`lchamlari va chok haqiga asoslanib chizishda har xil konstruksiyalash metodlaridan foydalaniлади. Garchi konstruksiyalash metodlarining kamchiliklari ham bo`lsada, ular ancha oson kiyim detallarining forma hamda o`lchamlarini nisbatan to`g`ri aniqlash imkonini beradi, shunga ko`ra dastlabki chizmalar uchun kerakli ma`lumotlarni hisoblab chiqarishda va ularni hali ham shu metodlar ishlatiladi. Ularning ko`pchilikka ma`lum bo`lganlari hisoblash-o`lchamlar metodi, proporsional hisoblash metodi, kordinatalar metodi, masshtablar metodi va boshqalar. Konstruksiyalashning proporsional-hisoblash metodlaridan birinchi marta ko`plab kiyim tikishda foydalaniлади. Bu metodlar hisoblash-o`lchash metodlarining bir to`ridir; bunda bichish o`lchamlari hisoblash o`lchamlariga almashtirilgan. Hisoblash o`lchamlari ikkita asosiy razmer belgisiga ko`krak yarim aylanasinining ikkinchi o`lchamiga va rostga proporsional bog`liq holda belgilanadi, hisobga olinadi.

Bolalar kiyimini formalar va modalar tobora ko`payayotganligi katta yoshdagi kishilar kiyimining turlari o`amda formalari ko`payishi bilan chambarchas bog`liq. Hozirgi bolalar kiyimining asosiy sifat ko`rsatkichlaridan biri uning funksionalligidir. Kiyimning funksionalligi umumiyl tushuncha bo`lib, kiyimning konstruktiv va estetik xarakteristikasini, unga qo`yiladigan fiziologik, sotsial va texnologik talablarni o`z ichiga oladi. Yasli yoshidagi bolalarning kiyimlari juda erkin, harakatlanishni qiyinlashtirmaydigan va qulay bo`lishi lozim. Chaqaloqlarning birinchi ustki kiyimi – sovuq o`tkazmaydigan, yengil, etarli darajada tekis, engsiz bo`ladi. Ich kiyimi – polzinka bilan birga koftochka va ko`ylak, ko`pincha trikotajdan tikiladi. Bola o`sib katta bo`lgan sari uning kiyimlarining turi ham o`zgaradi: kombinezon, kurtka, plashch shular jumlasidandir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi o`g'il bolalarga shim, ko`ylak, kurtka tavsiya etiladi. O`g'il bolalar palto`sining eng o`miziga o`tqazib tikiladigan yoki reglan bichimli yeng bo`ladi: barxyalar o`rtadan tugmalanadi. Cho`ntakli va belbandli bo`ladi.

Ma`lumki, trikotaj deb, halqalardan tashkil topgan mato yoki mahsulotga aytildi. Halqa esa trikotaj mato yoki mahsulotlarining asosiy elementi bo`lib, ipning egilishi tufayli yuzaga keladigan shakldir.

Trikotaj mahsulotlari ularning mavjud tasnifiga asoslanib, shakllanishiga mos tarzda ustki, ichki, paypoq, qo`lqop mahsulotlari, bosh kiyimlar va sharf ro`mol mahsulotlariga bo`linadi. Sanab o`tilgan har bir guruh mavsumiy kiyimlar va sport kiyimlari kabi kichik guruhlarni o`z ichiga oladi.

Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishning asosan bichish, yarim muntazam, muntazam usullari mavjuddir, ayrim hollarda bichish va muntazam usullarni qamrab oluvchi aralash usuldan ham foydalaniлади.

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"

Bichish usulida trikotaj matodan mahsulot detallari bichib olinadi, so`ngra ma`lum tikish ketma-ketligida tayyor mahsulot shakllantiriladi. Yarim muntazam usulda trikotaj mahsulotini kupondan yarim bichish yo`li bilan tayyorlanadi.

Aralash usulning o`ziga xosligi shundaki, unda bichish usulidagi mahsulot detallarini tikishda muntazam usulda olingan ayrim detallardan foydalaniladi.

Ichki kiyim uchun mo`ljallangan matolardan odatda ko`ylaklar, kombinsiyalar, mayuka, trusik, cho`milish kostyumlari, bolalar polzunkalari kabi trikotaj mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Tolalari tarkibiga qarab trikotaj mahsulotlar uch guruhga—A, B, V ga bo`linadi. Shu o`rinda A guruhiga tabiiy tolalar yoki tabiiy tolalar va kimyoviy tolalar aralashmasidan olingan kalava iplaridan to`qilgan trikotaj matolar kiradi

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmoniga sharh.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2016 yil 21-dekabrdagi “2017 — 2019 yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g’risida” gi PQ-2687-sonli Qarori.
3. Ergasheva R. Nabidjanova N.N Yangi tuzilishdagi trikotaj matolardan tikuvtrikotaj buyumlari assortimentini yaratish mavzusidagi magistrlik dissetatsiya ishi Namangan 2014 yil.
4. Muqimov M.M "Trikotaj texnologiyasi" T., 2002 y